

**QORAQALPOG'ISTON
RESPUBLIKASI
VAZIRLAR KENGASHINING
QARORI**



**QARAQALPAQSTAN
RESPUBLIKASI
MINISTRLER KENESININ
QARARI**

2023 - yil 31 - oktabr

379-13-0-Q/23

Qoraqalpog'iston Respublikasi
Vazirlar Kengashi

Urug'lik paxtani mustaqil yetishtirish, tayyorlash, ularga ishlov berish, saqlash va sifatli urug'liklarni yetkazib beruvchi hususiy urug'chilik korxonalarini faoliyatini yo'lga qo'yish to'g'risida

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasining 2023-yil 21-sentabrdagi 11-1939-sonli topshiriq xati hamda O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 7-iyuldagi "Paxta hosildorligini oshirish, paxta yetishtirishda ilm va innovatsiyalarni joriy qilishning qo'shimcha tashkiliy choratadbirlari to'g'risida"gi PQ-308-sonli qaroriga asosan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Paxtachilik Kengashining 2023-yil 22-avgustdagi 30-sonli bayoni (5-bandi) ijrosini ta'minlash maqsadida Qoraqalpog'iston Respublikasi Vazirlar Kengashi

QAROR QILADI:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasining 2023-yil 21-sentabrdagi 11-1939-sonli topshiriq xati hamda O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Paxtachilik Kengashining 2023-yil 22-avgustdagi 30-sonli bayoni ijro va rahbarlik uchun qabul qilinsin.

2. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi paxtachilik kengashining 2023-yil 1-sentabrdagi PK-01/80-sonli xatining ilovasiga asosan, Qoraqalpog'iston Respublikasi tumanlarida zamonaviy infratuzilma va zarur aylanma mablag'iga ega xususiy urug'chilik korxonalari ro'yxati ilovaga muvofiq tasdiqlansin.

3. Qoraqalpog'iston Respublikasi Qishloq xo'jaligi vazirligi (Q.Nurimbetov) ilovada keltirilgan hususiy urug'chilik korxonalarini respublika va tuman taqsimot rejasiga, shuningdek, Qoraqalpog'iston Respublikasi statistika boshqarmasi (T.Ganiev) statistika reyestrlariga kiritish choralari ko'rsin.

4. Tuman hokimliklari, Qishloq xo'jaligi vazirligi hususiy urug'chilik korxonalari tomonidan 2023-yil hosili uchun yetishtirilgan urug'lik va texnik paxtani shartnomalar asosida qayta ishlash, nav va avlodlar bo'yicha alohida

jamg'arish, standart talablariga mos ravishda saqlash, tozalash, saralash, dorilash, quritish, qadoqlash hamda tayyorlangan mahsulotlarni muvofiqlik sertifikatlari asosida belgilangan tartibda sotilishini ta'minlash choralarini ko'rsin.

5. Mazkur qarorning bajarilishini nazorat qilishni qishloq va suv masalalari bo'yicha o'rinbosari D.Kaypov zimmasiga yuklansin.

**Qoraqalpog'iston
Respublikasi Vazirlar
Kengashi Raisi**



F.Ermanov

Qoraqalpog'iston Respublikasi
Vazirlar Kengashining
2023-yil 31-oktabrdagi
379-13-0-Q/23-son qaroriga
1-ilova

**Qoraqalpog'iston Respublikasida faoliyati yo'lga
qo'yilgan xususiy urug'chilik korxonalari**

R O' Y X A T I

1. Amudaryo tumanidagi "Amudaryo elita urug'chilik" MCHJ
2. Ellikqa'la tumanidagi "Buston klaster" MCHJ
3. Ellikqa'la tumanidagi "Ellikqa'la oltin tolası" MCHJ
4. Ellikqa'la tumanidagi "Bo'ston-91" fermer xo'jaligi
5. Ellikqa'la tumanidagi "Bo'ston-50" fermer xo'jaligi
6. Ellikqa'la tumanidagi "Amirobod Jayroni" fermer xo'jaligi